

NAVOIY VILOYATIDA EKOTURIZM HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Xamrayev Bekzod*BuxDU, 9-1TURS-22 guruhi talabasi,***Alimova Sh.O***Ilmiy rahbar: BuxDU katta o'qituvchisi, PhD*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy viloyatida ekoturizmni rivojlantirishning bugungi holati ko'rib chiqiladi, uning tabiiy, geografik va ekologik imkoniyatlariga e'tibor qaratiladi. Viloyatning xilma-xil landshaftlari, jumladan, cho'l ekotizimlari, tog' oldi zonalari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, noyob o'simlik va hayvonot dunyosi ekoturizmni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Tadqiqotda ekoturizmning o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, masalan, infratuzilmaning mavjudligi, foydalanish imkoniyati, atrof-muhitni boshqarish va mahalliy hamjamiyatning ishtiroki tahlil qilingan. Shuningdek, Navoiy viloyatida ekoturizmni samarali rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan mavjud muammolar, jumladan, turizm xizmatlarining yetarli emasligi, investitsiyalarning cheklanganligi, ekologik xavflar aniqlangan. Maqolada har tomonlama tahlil qilish asosida barqaror ekoturizmni rivojlantirish, turizm infratuzilmasini yaxshilash, tabiiy resurslarni asrab-avaylash, mahalliy aholi uchun ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlarni oshirishga qaratilgan strategik yo'nalishlar va amaliy chora-tadbirlar taklif etilgan. Ushbu tadqiqot natijalari ekologik jihatdan mas'uliyatli turizmni rivojlantirish va mintaqaning tabiiy va rekreatsion salohiyatidan samarali foydalanishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Navoiy viloyati, tabiiy va ekologik salohiyat, barqaror turizm, ekologik barqarorlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается текущее состояние развития экотуризма в Навоийской области, с акцентом на его природный, географический и экологический потенциал. Разнообразные ландшафты региона, включая пустынные экосистемы, предгорные зоны, охраняемые природные территории, а также уникальную флору и фауну, создают благоприятные условия для развития экотуризма. В исследовании анализируются основные факторы, влияющие на рост экотуризма, такие как наличие инфраструктуры, доступность, экологическое управление и участие местного населения. Кроме того, выявляются существующие проблемы, препятствующие эффективному развитию экотуризма в Навоийской области, включая недостаточное количество туристических услуг, ограниченные инвестиции и экологические риски. На основе всестороннего анализа в статье предлагаются стратегические направления и практические меры, направленные на содействие устойчивому развитию экотуризма, улучшение туристической

инфраструктуры, сохранение природных ресурсов и увеличение социально-экономических выгод для местных сообществ. Результаты данного исследования способствуют развитию экологически ответственного туризма и эффективному использованию природного и рекреационного потенциала региона.

Ключевые слова: Навоийский регион, природный и экологический потенциал, устойчивый туризм, экологическая устойчивость.

Abstract: This article examines the current state of ecotourism development in the Navoi region, focusing on its natural, geographical, and ecological potential. The region's diverse landscapes, including desert ecosystems, foothill zones, protected natural areas, and unique flora and fauna, create favorable conditions for the development of ecotourism. The study analyzes the main factors influencing ecotourism growth, such as infrastructure availability, accessibility, environmental management, and local community involvement. Furthermore, existing problems hindering the effective development of ecotourism in the Navoi region, including insufficient tourism services, limited investment, and environmental risks, are identified. Based on a comprehensive analysis, the article proposes strategic directions and practical measures aimed at promoting sustainable ecotourism, improving tourism infrastructure, preserving natural resources, and increasing the socio-economic benefits for local communities. The findings of this study contribute to the development of environmentally responsible tourism and the efficient use of the region's natural and recreational potential.

Keywords: Navoi region, natural and ecological potential, sustainable tourism, environmental sustainability.

Kirish

Bugungi kunda turizm sohasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan ekoturizm tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda mahalliy aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Jahon miqyosida ekoturizm barqaror rivojlanish konsepsiyasining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilib, ekologik muvozanatni saqlagan holda iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini bermiqda. Shu nuqtai nazardan, ekoturizmni rivojlantirish masalasi O'zbekiston, xususan Navoiy viloyati uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Navoiy viloyati o'zining keng cho'l hududlari, tog' oldi zonalari, noyob tabiiy landshaftlari hamda biologik xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Hududda joylashgan qo'riqlanadigan tabiiy ob'ektlar, milliy bog'lar va ekologik jihatdan muhim hududlar ekoturizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. So'nggi yillarda mamlakatda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar doirasida Navoiy viloyatida ham ekoturistik yo'nalishlarga e'tibor kuchayib, ayrim hududlarda ekologik sayohatlar, tabiat qo'ynida dam olish va ilmiy-ekologik marshrutlar tashkil etilmoqda.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtda viloyatda ekoturizmning rivojlanish darajasi mavjud imkoniyatlarga to'liq mos kelmaydi. Ekoturistik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani, xizmatlar sifati pastligi, malakali mutaxassislar yetishmovchiligi hamda ekologik monitoring tizimining to'liq shakllanmaganligi soha rivojiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar sirasiga kiradi. Bundan tashqari, tabiiy hududlardan foydalanishda ekologik barqarorlikni ta'minlash masalasi ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada Navoiy viloyatida ekoturizmning hozirgi holati chuqur tahlil qilinib, mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari hududda ekoturizmni barqaror rivojlantirish, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va turizm sohasining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ekoturizm tushunchasi va uning barqaror rivojlanishdagi o'rni xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda ekoturizm tabiiy hududlarga mas'uliyatli sayohat qilish, biologik xilma-xillikni saqlash hamda mahalliy aholi manfaatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turizm turi sifatida talqin etiladi. Xususan, xorijiy tadqiqotchilar ekoturizmni barqaror turizmning muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, uning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlariga alohida e'tibor qaratganlar.

Navoiy viloyatida ekoturizmning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari masalalari bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, **R.A. Islomova va Sh. Idrisova** o'z tadqiqotlarida Navoiy viloyatining tabiiy resurslari asosida ekoturizmni rivojlantirish yo'nalishlari, mavjud muammolar va istiqbolli imkoniyatlarni ilmiy jihatdan tahlil qilgan bo'lsalar, **U.O. Narzullaev** esa viloyatning turistik salohiyati, jumladan, Qizilqum cho'li, Sarmishsoy darasi va boshqa tabiiy obyektlarning ekoturizmni rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritib bergan. Ushbu ilmiy ishlar Navoiy viloyatida ekoturizmni barqaror rivojlantirish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mamlakatning turli hududlarida, jumladan cho'l va tog' oldi zonalarida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari o'rganilgan. Ushbu ishlarida mualliflar tabiiy-rekreatsioon resurslardan samarali foydalanish, ekologik muhofaza va turizm infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratganlar. Ayrim tadqiqotlarda Navoiy viloyatining cho'l landshaftlari, biosfera hududlari va qo'riqlanadigan tabiiy ob'ektlari ekoturizm uchun istiqbolli hududlar sifatida baholangan.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Navoiy viloyatida ekoturizmning hozirgi holati, muammolari va rivojlanish istiqbollari kompleks tarzda yetarlicha o'rganilmagan. Aksariyat tadqiqotlar umumiy nazariy yondashuvga ega bo'lib,

hududiy xususiyatlar, amaliy muammolar va aniq takliflar yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga, ya'ni Navoiy viloyatida ekoturizmning hozirgi holatini tahlil qilish va uning istiqbollarini aniqlashga qaratilgan.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot Navoiy viloyatida ekoturizmning hozirgi holatini baholash va uning rivojlanish istiqbollarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi barqaror rivojlanish konsepsiyasi hamda ekoturizmning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar uyg'unligiga asoslangan nazariy yondashuvlardan iborat.

Tadqiqot davomida dastlab ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va soha bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Ushbu bosqichda tavsifiy (deskriptiv) va tahliliy metodlar orqali ekoturizm tushunchasi, uning asosiy tamoyillari hamda hududiy rivojlanishdagi o'rni o'rganildi. Navoiy viloyatining tabiiy-rekreatsion resurslari, qo'riqlanadigan hududlari va ekologik ob'ektlari ekoturizm nuqtai nazaridan baholandi.

Keyingi bosqichda taqqoslash (komparativ) metodi asosida Navoiy viloyatidagi ekoturizm holati respublikaning boshqa hududlari yoki o'xshash tabiiy sharoitga ega mintaqalar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Bu usul hududning mavjud imkoniyatlari va kamchiliklarini aniqlashga xizmat qildi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida ekoturizm infratuzilmasi, transport qulayligi, xizmatlar sifati va ekologik boshqaruv mexanizmlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi.

Tadqiqotda statistik metodlardan foydalanilib, mavjud rasmiy ma'lumotlar asosida ekoturizm bilan bog'liq ko'rsatkichlar umumlashtirildi va tahlil qilindi. Muammolarni aniqlash va rivojlanish istiqbollarini belgilashda mantiqiy tahlil, sintez va prognozlash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, kuzatuv va ekspert baholash metodlari orqali hududning ekoturistik salohiyati va ekologik barqarorlik holati baholandi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, xulosalar chiqarildi hamda Navoiy viloyatida ekoturizmni barqaror rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Qo'llanilgan metodlar tadqiqotning ishonchliligi va natijalarining amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qildi.


Natijalar

So'rovnomani o'tkazishdan eng asosiy maqsad – bu Navoiy viloyatida ekoturizmning holati va istiqbolini o'rganish bunda turistlarning ekoturistik maskanlarga tashrif bururishda, hordiq chiqarishda yuzaga keladigan muammolarni, kamchiliklarni aniqlash va ularni baraf etishdan iborat. So'rovnoma natijalariga ko'ra, so'rovnomada qatnashganlarning asosiy qismi 18-25 yosh oralig'ida bo'lib, ular jami respondentlarning qariyb uchdan ikki qismiga teng. Ikkinchi eng kata guruhni 55+

yoshdagilar tashkil etadi. 30-40 yosh va 40-45 yoshdagilar o'rtacha ulushga ega, eng kam ishtirok etganlar esa 18yoshdgacha bo'lgan respondentlar orasida kuzatilgan. Bu esa so'rovnoma asosan yoshlardan iborat auditoriya qatnashganini ko'rsatadi. So'rovnoma ishtirok etganlarning jinsi: respondentlarning 60% — erkaklar, 40% — ayollarni tashkil etadi. Bu esa so'rovda ayollardan erkaklar faolroq qatnashganini ko'rsatadi. So'rovnoma qatnashganlarning eng katta qismi o'zbek millati 75% ini tashkil etadi. Shuningdek, tojiklar (15%), ruslar (10%) va inglizlar (10%) ham sezilarli ulushga ega. Bu natijalar so'rov keng millatlar vakillarini qamrab olganini ko'rsatadi.

Navoiy viloyatidagi ekoturizm maskanlariga qayerlar kiradi

20 ОТВЕТОВ




1-rasm. Qatnashuvchilar fikricha Navoiy viloyatidagi mashhur maskanlar

1-rasmda ko'rinishicha, Navoiy viloyati ekoturizm maskanlariga turistlar tashrifi yaxshiligi sabab ular haqida ma'lumotga ega. Ekoturizm maskanlari haqida tashrif buyuruvchi turistlarning 28.6% do'stlaridan malumot olganlar va shuncha turistlar o'zlari borib ko'rishgan qolganlari internetdan va manbalardan ma'lumot olganlar.

Navoiy viloyatidagi ekoturizm maskanlarining hozirgi vaqtdagi holati


20 ОТВЕТОВ



2-rasm. Qatnashuvchilarning Navoiy viloyatidagi ekoturizm maskanlari holati bo'yicha

Ushbu rasm natijalariga ko'ra Navoiy viloyati ekoturistik maskanlarining hozirgi vaqtdagi holati haqida so'ralganda respondentlarning 40% ijobiy fikrda javob berishdi qolgan qismining yarmi bormaganligi va qolgan yarmi borsada malum kamchilikla sabab o'rtacha fikrda javob berishdi

Ekoturizm maskanlarida hordiq chiqarishga salbiy ta'sir qiladigan muammolar mavjud deb o'ylaysizmi
20 ОТВЕТОВ



- tabiati chiroyli lekin borishga qiynalaman yo'l infratuzilmalari talabga javob bermaydi shu uchun ham kam boraman
- tabiat bag'rida o'zimiz xohlagan joyda o'tira olmaymiz chunki mahalliy aholiga pul to'lagan holda o'tiriladi
- misol uchun yozgi mavsumda tashrif buyurganimda hordiq chiqaruvchi xonalar (dacha) yoqligi sabab issiq havoda o'tirish ozroq qiyinchilik tug'diradi

3-rasm. Qatnashuvchilar fikriga ko'ra xordiq chiqarishga ta'sir qiluvchi omillar

3-rasm natijalariga ko'ra Ekoturizm maskanlarida hordiq chiqarishga salbiy ta'sir qiladigan muammolar haqida so'ralganda respondentlarning 40% yo'l infratuzilmalari talabga javob bermasligi yani yo'llarning nosozligi sabab ko'p tashrif buyurmasligini bildirishdi qolgan qismining yarmi hordiq chiqarish uchun honalar yoqligini aytishdi qolgan yarmi esa tabiat bag'rida o'zlari xohlagandek hordiq chiqara olmas ekan.

so'rovnomadan olingan yakuniy natijalar shuni ko'rsatadiki, respondentlarning aksariyati sayohatga yuqori qiziqishga ega bo'lib, turli yosh, jins va millat vakillaridan iborat keng auditoriya qamrab olingan. Ularning ko'pchiligi Navoiy viloyati ekoturizm maskanlariga do'stlari, oilasi va jamoa bo'lib borish istagi borligini bildirishdi, ammo ekoturistik maskanlariga borishda va hordiq chiqarishda salbiy ta'sir qiladigan muammolar borligi sabab kam tashrif burushlarini bildirishdi. Ulardan eng asosiysi ko'plab respondentlarni qiynaydigan muammo bu yo'l infratuzilmasi ekan bunda yo'llarning talabga javob bermasligi avtomashinalar yo'lda buzilib qolgan taqdirda o'xshatadigan ustaxonalar kamligi asosiy sabablardan biri ekan. Keyingi muammo bu ekoturistik maskanlarga tashrif buyurgan turistlarning maroqli hordiq chiqarishiga yanada qulay shart-sharoitlar yaratilmagani ekan. Bunda ekoturistik maskanlarida hordiq chiqaradigan xona (dacha) lar yoqligi sabab turistlar yilning xohlagan vaqtida tashrif buyurisha olmasligini aytishdi.

Xulosa

Navoiy viloyati ekoturizm maskanlarining hozirgi vaqtdagi holati yaxshi ekanligi lekin ayrim respondentlari haligacha ekoturistik maskanlar haqida hech qanday

malumotlarga ega emasligi aniqlandi. Ushbu ekoturizm maskanlariga tashrif buyuruvchi turistlarga esa maroqli xordiq chiqarishiga salbiy tasir qiladigan muammolarni aniqladi va bartaraf etish yo'llarini qidirishga kirishildi va bunda quyidagi ishlarni amalga oshirsagina aniqlangan muammolarni bartaraf etish mumkin degan xulosasi tasdiqlandi.

Avvalo, ekoturizm maskanlarga etuvchi yo'llardagi nosozliklarni bartaraf etish, tashrif buyuradigan sayyohlar asosan yengil avtomashinalarda yoki avtobuslarda kelishlarida yengillik yaratish talab etiladi. Keying dolzarb muammolardan yana biri Navoiy viloyatida turizm boshqarmasida har bitta ekotuzm maskanlarini nazorat qilish uchun lavozimlar tashkil qilish kerak. Bunda har bitta ekoturistik maskanlariga mas'ul xodimlar ushbu maskanlardagi muammolarni aniqlashlari va bartaraf etishlari oson bo'ladi shuningdek turistlar oqimi yanada oshadi.

Shuningdek ekoturistik maskanlarida xususiy xordiq chiqaradigan xona(dacha)lar tashkil qilish zarurligi aniqlandi, chunki yilning istalgan vaqtida tashrif buyurganda uyerda qolish va hordiq chiqarish qulay va oson bo'ladi.

Turistlar oqimini yanada oshirish uchun ushbu ekoturistik maskan tasvirlangan videoroliklar ishlab ularni ijtimoiy tarmoqlarda reklama qilish kerak bunda barcha qiziqqan inson bermalol ma'lumot olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://lex.uz/docs/4143183> — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son Farmoni
2. <https://lex.uz/docs/5841063> — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
3. https://uzbekistan.travel/storage/app/media/docs/zakoni_turizma/uz/orq-549-18072019.pdf — O'zbekiston Respublikasi «Turizm to'g'risida»gi Qonuni (O'RQ-549)
4. <https://stat.uz/statistics/tourism-report-2023> — O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi turizm bo'yicha statistik hisobotlari
5. <https://uzbektourism.uz> — O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi rasmiy axborotlari
6. <https://worldlyjournals.com/index.php/wkc/article/view/4345> — "O'zbekiston Respublikasining Turizm to'g'risida Qonuni" va strategik yo'nalishlar bo'yicha maqola (Worldly Journals)
7. <https://kun.uz/news/2023/10/16/ozbekistonda-turizm-sohasi-2017-2023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalarga-olib-keldi> — kun.uz portali statistik va tahliliy ma'lumotlar

-
8. <https://www.unwto.org> — Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) rasmiy sayti (ekoturizm bo'yicha metodik tavsiyalar uchun)

